

MILLIY MA'NAVIYATDA MILLIY TARBIYA OMILI

Ruziyev Bobosher Usarovich

Toshkent davlat tibbiyot universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada milliy ma'naviyat tushunchasi va ma'naviyatni himoya qilishda milliy tarbiyaning o'rni va ahamiyati ijtimoiy-falsafiy jihatdan tahlil qilinadi. Milliy ma'naviyatni o'z qarashlarida ilgari surgan buyuk mutafakirlar, mumtoz adabiyot allomalari, jadidlarning qarashlarida tarbiya yosh avlod ongida vatanparvarlik, tarixiy xotira, milliy g'urur, ma'naviy immunitet, ajdodlar merosiga hurmat kabi fazilatlarni shakllantirishning muhim omili sifatida yoritiladi. Maqolada milliy qadriyatlarni asrash, yoshlarni ma'naviy barkamol shaxs etib tarbiyalash hamda milliy o'zlikni anglashni mustahkamlash masalalari asosiy ilmiy muammo sifatida ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: milliy ma'naviyat, milliy tarbiya, jadidlar, ma'naviy immunitet, vatanparvarlik, milliy qadriyatlar, yoshlar tarbiyasi, globallashuv, milliy o'zlik.

Аннотация: В данной статье концепция национальной духовности и роль национального воспитания в её защите рассматриваются с социально-философской точки зрения. Анализируются взгляды великих мыслителей, классических литераторов и джадидов, в трудах которых воспитание раскрывается как важнейший фактор формирования в сознании молодого поколения таких качеств, как патриотизм, историческая память, национальная гордость, духовный иммунитет, уважение к наследию предков. В статье в качестве основных научных проблем рассматриваются вопросы сохранения национальных ценностей, воспитания молодёжи как духовно зрелой личности, а также укрепления национального самосознания.

Ключевые слова: национальная духовность, национальное воспитание, джадиды, духовный иммунитет, патриотизм, национальные ценности, воспитание молодёжи, глобализация, национальная идентичность.

Abstract: This article analyses the concept of national spirituality and the role of national upbringing in its protection from a socio-philosophical perspective. The views of great thinkers, classical literary scholars, and jadids are examined, in whose works upbringing is illuminated as a crucial factor in shaping qualities such as patriotism, historical memory, national pride, spiritual immunity, and respect for ancestral heritage in the consciousness of the younger generation. The article examines the preservation of national values, the upbringing of youth as spiritually mature individuals, and the strengthening of national identity as the main scientific problems.

Keywords: national spirituality, national upbringing, jadids, spiritual immunity, patriotism, national values, youth education, globalization, national identity.

KIRISH

M'anaviyat tushunchasi har doim jamiyat hayotida chuqur ahamiyat kasb etib kelgan. Bu tushunchani ko'plab madaniyatshunoslar, faylasuf olimlar azaldan chuqur tahlil qilib keladi va uning jamiyat va davlat taraqqiyotidagi o'rnini baholi qudrat yoritishga urinishadi.

Milliy ma'naviyat tushunchasi esa har bir xalqning o'ziga xos ma'naviy qiyofasini, tarixiy xotirasini va milliy qadriyatlarining borligini va azaldan yer yuzida xilma-xillikni turli madaniyat o'rtasida o'ziga xos rang-baranglikni gavdalantirib kelgan. Bu xilma-xillik esa globallashuv jarayonlari jadallashib, axborot oqimlari mislsiz darajada kengayib borayotgan hozirgi davrda universallashib bormoqda. Asta sekin inson va jamiyat uning qadr-qimmatini, xalqlarning milliy ma'naviyatini asrab-avaylash masalasi strategik ahamiyat kasb etmoqda. Milliy ma'naviyat — bu xalqning asrlar davomida shakllangan dunyoqarashi, axloqiy me'yorlari, urf-odatlarini, an'analari, diniy-e'tiqodiy qarashlari, estetik didi va ijtimoiy ideallarining yaxlit tizimidir. U jamiyatning ichki barqarorligini ta'minlaydigan, Vatanga sadoqat, milliy g'urur va nomus, qadriyatlari, burch va ijtimoiy mas'uliyat tuyg'ularini shakllantiradigan muhim omil hisoblanadi.

XX asr oxiri, XXI asrning boshiga kelib dunyo ko'p qutbli bo'lib qayta shakllana boshladi. Turli kuchlar dunyoda hukmronlik qilishga nafaqat harbiy qurollarning yangi turlari vositasida balki mafkuraviy ta'sir etish yollaridan foydalana boshladi. Bu esa mafkuraviy ta'sirlarga qarshi kurash yo'llarini izlashga majbur qildi. Shu tufayli O'zbekistonning birinchi prezidenti Islom Karimov mustaqillikka erishgach ma'naviyatimizni asrash, uni turli mafkuraviy ta'sirlardan himoya qilish, qadriyatlarimizni tiklash masalasini muhim ustuvor masala qilib qo'ydi. (1, Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li. — Toshkent: O'zbekiston, 1992.) Bugungi kunda dunyo miqyosida turli mafkuraga ega bo'lgan kuchlar yoshlar ongiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Shuning uchun ham Islom Karimov "Mafkura bo'lmasa, odam, jamiyat, davlat o'z yo'lini yo'qotadi" deb ta'kidlagan edi.(A2, 74-bet) Zero, milliy o'zlikni anglash, tarixiy merosga hurmat va ajdodlar tajribasiga tayanish jamiyatning ma'naviy immunitetini mustahkamlashning asosiy shartlaridan hisoblanadi. Mazkur vazifani amalga oshirishda milliy tarbiya hal qiluvchi muhim omil sifatida namoyon bo'ladi. Milliy tarbiya — bu shaxsni xalqning tarixiy tajribasi, madaniy merosi, urf-odatlarini va umuminsoniy qadriyatlar asosida kamol toptirishga qaratilgan maqsadli va tizimli jarayondir.

U insonning nafaqat bilim va ko'nikmalarini, balki e'tiqodi, hayotiy pozitsiyasi va axloqiy mas'uliyatini ham shakllantiradi. Shu jihatdan milliy tarbiya yoshlarni yot g'oyalardan himoya qilish, ularda tanqidiy tafakkur va mustaqil dunyoqarashni rivojlantirish, milliy manfaatlarga sodiq barkamol shaxsni tarbiyalashda beqiyos ahamiyatga ega. Shuningdek milliy tarbiyada oila, mahalla, ta'lim muassasalari va keng jamoatchilikning hamkorligi uning samaradorligini belgilovchi muhim omillardan biridir.

Aynan ushbu ijtimoiy institutlar orqali bolalar va yoshlar milliy qadriyatlarni kundalik hayot tajribasi orqali o'zlashtiradilar, ularni shaxsiy e'tiqod va xulq me'yoriga aylantiradilar. Shunday ekan, milliy ma'naviyatni himoya qilish masalasini milliy tarbiya tizimini takomillashtirish, uning mazmunini nafaqat zamonaviy pedagogik balki, ijtimoiy falsafiy yondashuvlar bilan boyitish va ta'sirchanligini oshirish bilan uzviy bog'liq holda o'rganish dolzarb muammo hisoblanadi.

Ushbu maqolaning maqsadi milliy ma'naviyatni asrash va mustahkamlashda milliy tarbiyaning o'rni va ahamiyatini falsafiy jihatdan tahlil qilish, uning yoshlar ma'naviy-axloqiy kamolotiga ta'sirini ochib berish hamda bu boradagi samarali yondashuvlarni asoslashdan iborat.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI .

Maqolada tarixiylik, tizimlilik, qiyosiy tahlil, ijtimoiy-falsafiy umumlashtirish metodlaridan foydalanildi.

Mavzuga doir izlanishlarda manbalarni davrlarga bo'lib tahlil qilindi. Bunda birinchi davrda sharq uyg'onish davriga tegishli bo'lgan Markaziy Osiyo va yurtimizning ulug' allomalari nodir asarlari, ikkinchi buyuk mutafakkirlarning mumtoz asarlarda odob-axloq masalalarining yoritilishi keyingi davrda jadidchilik davridagi adabiyotlarda tarbiya-ta'lim milliylik masalasiga e'tibor va yangicha yondashuvlar, shuningdek to'rtinchi davrda mustaqillik davridagi ma'naviyatga e'tibor va adabiyotlar, milliy ma'anaviyat va ta'lim masalasining aks etishi o'rganildi.

Birinchi davrga Sharq uyg'onish davrining (1-renessanes) buyuk ensiklopedist mutafakkirlari — Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino va Abu Nasr Forobiyning asarlarini ularning ijodlarida ma'anaviyatning chuqur ilmiy tahlillarini keltirish mumkin. Ikkinchi mumtoz adabiyot durdonalari chuqur ma'naviy-tarixiy asarlar egasi Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, A. Navoiy, Z.M.Bobur va boshqalarning asarlarida ma'naviyat namunasi, odob axloq, tarbiya masalalari chuqur yoritilgan.

Uchinchi davr bu jadidchilik davri bo'lib, Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdurauf Fitrat, Cho'lpon ijodi va ularning milliy ta'lim-tarbiya haqidagi qarashlari muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

To'rtinchi mustaqillik davridagi adabiyotlar va milliy ma'anaviyat va tarbiya masalasiga bo'lgan yondashuvlarni olish mumkin. Bunga albatta birinchi Prezident Islom Karimovning tarixni tiklash va milliy o'zlikni anglash ma'naviyatni yuksaltirishga doir asarlarini va boshqa ko'plab olimlar va tadqiqotchilarning ishlarini olish mumkin.

NATIJALAR VA MUHOKAMALAR.

Sharq uyg'onish davrining yirik ensiklopedistlaridan Abu Rayhon Beruniy asarlari yuksak ma'naviyiy meros hisoblanadi. Xususan U "Hindiston" asarida jaholat va manmanlikni tanqid qiladi hamda ilm inson tafakkurini kengaytirishini ta'kidlaydi. (A3, 61-bet.) Shuningdek u tarix va qadriyatlarni o'rganish borasida gapirib "Xalqlarning urf-odat va qarashlarini bilish tarixni anglashga yordam beradi." (A4, 30-bet)

Abu Rayhon Beruniy ilm-fan, axloq va adolatni inson kamolotining asosiy omili deb hisoblagan. Uning asarlarida ilmiy tafakkur bilan bir qatorda ma'naviy poklik,

haqiqatparvarlik va jamiyat manfaatiga xizmat qilish g'oyalari ilgari surilgan. Bu qarashlar bugungi ta'lim-tarbiya tizimi uchun ham muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Abu Ali ibn Sinoning ma'naviyat, axloq va ta'lim-tarbiya haqidagi qarashlari asosan "Donishnoma", "Tadbiri manzil", "Axloq haqida risola" va "Kitob ush-shifo" asarlarida uchraydi.

Mutafakkir inson ma'naviy kamolotida qanoat, sabr va me'yorni muhim axloqiy sifat sifatida baholab "Qanoat kamtarlik bilan hirs orasidagi fazilatdir." deydi. U vijdon va axloqni inson ma'naviy kamolotining asosi sifatida talqin qiladi. (A5,18-bet.) Shuningdek u ta'lim-tarbiya haqida qarashlarida oilaviy tarbiyani inson kamolotining birinchi bosqichi deb hisoblaydi. Bola tarbiyasi yoshligidan boshlanishiu kerakligini ta'kidlaydi. (A6, 42-bet.)

Abu Nasr Forobiy esa o'rta asrlar sharoitida birinchi bo'lib jamiyatning kelib chiqishi, maqsad va vazifalari haqida izchil ta'limot yaratdi. Bu ta'limotda ijtimoiy hayotning ko'p masalalari — davlatni boshqarish, ta'lim-tarbiya, axloq, ma'rifat, diniy e'tiqod, urush va yarash, mehnat va boshqalar qamrab olingan." Jumladan Forobiy inson "insonlar jamoasiga ehtiyoj" (A7,160-bet) sezishini ta'kidlaydi. Bu fikr Forobiy antropologiyasining markaziy g'oyasini ko'rsatadi: inson yolg'iz holda komillikka erisha olmaydi. Uning nazarida jamiyat shunchaki yashash vositasi emas, balki ma'naviy, axloqiy va aqliy kamolot shartidir. Shuning uchun Forobiyda tarbiya individual jarayon bo'lish bilan birga, ijtimoiy muhit, hamkorlik va adolatli boshqaruv bilan uzviy bog'lanadi. Bundan tashqari u rahbar odam fazilatlarini haqida gapirar ekan asarda u Fozil shahar hokimi "ta'lim olishga, bilim ma'rifatga havasli" (A8,41-bet) bo'lishi kerakligini ta'kidlaydi.

Forobiy ta'limni faqat oddiy bilim olish sifatida emas, balki boshqaruv, axloq va jamiyat farovonligining asosiy mezonini sifatida talqin qiladi. Fozil rahbarning bilimiga chanqoqligi uning shaxsiy fazilati bilan cheklanmaydi, bu fazilat butun jamiyatning ma'naviy yo'nalishini belgilaydi. Demak, Forobiyda siyosiy yetakchilik ilmiy-ma'rifiy yetukliksiz tasavvur qilinmaydi. Shuningdek u rahbar "o'zini tiya oladigan", "haq va haqiqatni... sevadigan" (A9,41 -b) bo'lishi zarur deb qaraydi.

Bu o'rinda Forobiy axloqni nafsni nazorat qilish, adolatga moyillik va haqiqatparvarlik bilan bog'laydi. Uning fikricha, ma'naviyat ichki intizomdan boshlanadi: inson huzur-halovat, boylik yoki martaba ortidan quvmassan, haqiqat va adolatga xizmat qilishi kerak. bu jihatni Forobiy axloqiy idealining asketik emas, balki ijtimoiy mas'uliyatga yo'naltirilgan modeli sifatida sharhlash mumkin.

Uning tarbiya haqida qarashlari chuqur ahamiyatga ega bo'lib u yaxshi xulq yoki fazilatga "tarbiya va mashq orqali erishiladi". (A10, 65-b) deb tushuntiradi.

Mumtoz adabiyot namoyondalaridan Yusuf Xos Hojib — bilim va ma'naviy kamol haqida yozar ekan o'zining "Qutadg'u bilig — Saodatga eltuvchi bilim." asarida "Bilim egalari esa elda aziz bo'ladi. Hurmat qozonadi." deb ta'kidlaydi. (A11,15-bet)

Yusuf Xos Hojib bilimni shaxsiy boylik emas, yuksak obro' va axloqiy kamolot manbai sifatida ko'radi. Bu jihatdan asarda u, ya'ni insonni ilm orqali komillikka yetaklash g'oyasini ilgari surgan Shuningdek o'sh asarda farzand tarbiyasi haqida "o'g'il-qizga o'rgat bilim ham odob." degan misrani ko'rishimiz mumkin. Bu esa tarbiya oiladan boshlanishini ko'rsatadi. Muallif farzand kamolida ikki asosiy mezonni — bilim va odobni birga qo'yadi; bu esa ma'naviy yetuklikka erishishning ikki tomoni ilmiy va axloqiy asoslari ajralmas ekanini bildiradi.

Buyuk mutafakkir Alisher Navoiy ijodi yuksak ma'naviy meros bo'lib unda odob, xulq, tarbiya va umuman ma'naviyat juda yuksak tarzida yoritilgan. Uning bigina "Mahbub ul-qulub" asarida yaxshi xulqlardan biri saxovot haqida shunday misra bor. "Saxovat insoniyat bog'ining borvar shajaridur." (A12,85-bet.) Bu fikrda saxovat insoniylikning hosildor daraxti sifatida ta'riflab beriladi. Navoiy ma'naviyatni yaxshi xulq ya'ni saxovot bilan ta'riflar ekan, ma'naviyat faqat e'tiqod yoki bilim bilan emas, balki boshqalarga naf yetkazish, mehr-oqibat va himmat bilan ham o'lchanishini yetkazib bergan. Shuningdek tarbiya borasida gapirganda Navoiyning odob haqidagi misralarini ko'rish mumkin. U odobni shaxsiy fazilat emas, balki insonlararo munosabatni nurafshon qiluvchi ma'naviy mezon sifatida talqin etadi. Uning "Adab va tavozu' ko'zgusig'a jilo berur, ikki jonibdin yorug'luq yetkurur." (A13,62-bet.) misrasi shu fikrlarga misol bo'ladi. Buyuk mutafakkir qarashlarida tarbiya insonning ichki kamoloti va jamiyatlardagi hurmat-e'tiborining asosi sifatida ko'rsatilganligini ko'rishimiz mumkin.

Jadidlar davrida esa Mahmudxo'ja Behbudiy — "Padarkush yoxud o'qimagan bolaning holi" (1911) dramasida, maqolalarida va boshqa ijodiy faoliyatida, Abdurauf Fitrat — "Najot yo'li" (Rahbari najot, 1915) asarida, Munavvar qori Abdurashidxonov "Bizni jaholat — jahli murakkab" (1906) maqolasida va o'z ijodlarida, Abdulla Avloniy "Turkiy guliston yoxud axloq" (1913) asarida va shuningdek boshqa jadidchi yozuvchilar o'z ijodlarida milliy ta'lim-tarbiya va milliy ma'naviyat masalasini o'z davrida yangicha ruhda yoritishgan.

Behbudiyning 1913-yilgi "Ehtiyoji millat" maqolasidagi "dunyoviy fan va ilm lozimdur" jumlasini keyingi ko'plab ma'rifatparvarlik matnlarining kalit formulasiga aylandi. Shu yilgi Millatlar qanday taraqqiy etarlar? maqolasida esa u "millat axloq, fazl va hunar ila boqiy qolur" deya mafkuraviy xulosani beradi. (A14, 202-bet.)

Abdurauf Fitrat millatning ma'naviy kelajagini oilaning ichki intizomi va tarbiyaviy madaniyatiga bog'laydi. U oilani faqat shaxsiy hayot makoni emas, balki millatning ijtimoiy-madaniy qayta ishlab chiqarilish maydoni deb ko'radi. Shu ma'noda Fitratda milliy tarbiya masalasi — oilaviy boshqaruv madaniyati, er-xotin mas'uliyati, farzandni to'g'ri tarbiyalash va uy ichidagi axloqiy muhit birligi ekanligini yoritib bergan. (A15,112-b)

Buyuk ustoz, Abdulla Avloniy milliy tarbiyani bevosita millatning yashash strategiyasi sifatida ko'radi. Uning axloqiy-pedagogik qarashida maktab, muallim va shaxsiy namuna bir-biridan ajralmaydi; shu bois u dars va tarbiyani yagona pedagogik

jarayon deb talqin qiladi. Avloniy merosining dolzarbligi shundaki, u tarbiyani faqat axloqiy targ'ibot emas, balki jamiyatning kelajak arxitekturasida ko'rsatadi (A16, 2008 y)

Mustaqillikdan keyingi adabiyotda milliy ma'naviyatni himoya qilish muammosi "ma'naviy tahdid", "yot g'oya", "ommaviy madaniyat", "mafkuraviy immunitet", "yoshlar tarbiyasi" va "institutsional hamkorlik" tushunchalari bilan ifodalana boshladi. Avvalo, ta'kidlash joizki, mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq O'zbekiston birinchi prezidenti Islom Karimov o'zining nutqlarida va mamlakat taraqqiyot modelida milliy o'zligini anglash va ma'naviyatni tiklash va uni asrash masalasiga e'tibor qaratdi. Islom Karimov, jumladan "O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li" asarida (1992), "Istiqlol va ma'naviyat" risolasida (1994), "O'zbekiston: milliy istiqlol, siyosat va mafkura" asarida 1-jild (1996), "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q" (1997), "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" (2008) va boshqa asarlarida muntazam ravishda milliy qadriyatlar, tarix va milliy ma'naviyat va milliy o'zlikni anglash, mafkuraviy kurashlar maydonida milliy mafkura, yoshlar ongida milliy tarbiya va mafkuraviy immunitetni shakllantirish kabi tushunchalari negizida milliy ma'naviyatni himoya qilishda o'ziga xos tarzda tarbiya jarayonida zamonaviy ilm -fan bilan birga milliylik masalasiga chuqur yondashgan. Xususan, "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida milliy qadriyatlar va ma'naviyatni "ruhan poklanish"ga chorlovchi kuch sifatida tariflaydi. Shu asarda u axloqsizlikni bilan bog'liq holatlarni inson hayoti, oila muqaddasligi va yoshlar tarbiyasiga xavf deb baholaydi.

Mustaqillik yillarida ma'naviyat masalasiga Islom Karimov doim e'tibor berib keldi. Qolaversa, bu umuman qonunchilikda va ta'limda ustuvor masala sifatida belgilandi. Bundan tashqari, mustaqillik davrida Muhammadjon Quronovning "Milliy tarbiya" nomli monografiyasi (2007-yilda), milliy tarbiyaning falsafiy asoslari haqida gapirganda S. Otamuratovning "Globallashuv: millatni asrash mas'uliyati" asari (2018) Bundan tashqari faylasuf olim Q. Nazarovning "Qadriyatlar falsafasi (Aksiologiya)" asari mavzuga aksiologik yondashuv hisoblanadi, A. Erkayevning "Ma'naviyatshunoslik" (2018) kitobida esa milliy tarbiya ma'naviy borliq va "ijtimoiy ong" bilan bog'lagan kuchli nazariy-falsafiy asoslardan biridir.

XULOSA.

Har qanday xalqning tarixiy taraqqiyoti nafaqat iqtisodiy va siyosiy yoki harbiy omillar, balki uning ma'naviy salohiyati bilan ham belgilanadi. Zero o'tmishda bejizga ko'plab bosqinchilar xalqlarni bosib olishda avvalo, uning ma'naviyatini yo'q qilishga urinib ko'rishganligi bejizga emas.

Sharq, mumtoz, jadidchilik va mustaqillik davri adabiyotlari tahlili shuni ko'rsatadiki, milliy ma'naviyatda milliy tarbiya omili tasodifiy yoki ikkinchi darajali hodisa emas, balki xalqning tarixiy xotirasi, axloqiy tajribasi, qadriyatlar tizimi va ijtimoiy taraqqiyotini avloddan-avlodga uzatuvchi asosiy ma'naviy mexanizmdir. Sharq falsafiy merosida tarbiya insonni komillikka yetkazuvchi vosita sifatida qaralgan bo'lsa, mumtoz adabiyotda u axloq, odob, halollik, adolat, mehr-oqibat va insoniylik mezonlari

orqali badiiy-falsafiy talqin qilingan. Forobiy asarlarida ma'naviyat va axloq masalasi insonning baxt-saodatga erishish g'oyasi bilan bog'lanadi. Unga ko'ra, inson kamoloti jamiyatdan tashqarida yuz bermaydi; fozil jamiyat esa ilm, adolat, tarbiya, oqillik va fazilat asosida quriladi.

Mumtoz adabiyotda milliy tarbiya ko'proq axloqiy-badiiy shaklda namoyon bo'ladi. Alisher Navoiy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yassaviy kabi mutafakkirlar merosida insonni tarbiyalash masalasi odob, ilm, saxovat, vatanparvarlik, ota-onaga hurmat, nafsni tiyish, adolat va komillik g'oyalari orqali yoritiladi. Bu merosning muhim tomoni shundaki, unda tarbiya faqat nasihat emas, balki inson qalbini poklash, jamiyatda ezgulikni qaror toptirish vositasi sifatida tushuniladi.

Jadidchilik davrida esa mustamlakachilik zulmiga qarshi ravishda milliy tarbiya millatni uyg'otish, ma'rifatli qilish, mustamlakachilikdan xalos etish omili sifatida yangicha mazmun kasb etdi. Jadidchilik adabiyotida milliy tarbiya yanada faol ijtimoiy-falsafiy mazmun oladi. Abdulla Avloniyning "Turkiy Guliston yoxud axloq" asari bu borada tayanch manbalardan biridir. Avloniy insonning kamolotini tarbiya bilan bog'laydi.

Mustaqillik davri adabiyotlarida milliy tarbiya alohida ilmiy, ijtimoiy va falsafiy kategoriya sifatida rivojlandi. Bu davrda milliy tarbiya ma'naviyat, qadriyat, milliy g'oya, tarixiy xotira, fuqarolik mas'uliyati, globallashuvga qarshi mafkuraviy immunitet kabi tushunchalar bilan bog'liq holda o'rganildi.

ADABIYOTLAR:

1. Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqlool va taraqqiyot yo'li. — Toshkent: O'zbekiston, 1992.
2. Karimov I.A. Istiqlool va ma'naviyat. — Toshkent: O'zbekiston, 1994.
3. Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlool, siyosat va mafkura. 1-jild. — Toshkent: O'zbekiston, 1996.
4. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. — Toshkent: Sharq, 1998.
5. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch. — Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
6. Abu Rayhon Beruniy. Hindiston. Tanlangan asarlar. II tom. — Toshkent: O'zbekiston SSR "Fan" nashriyoti, 1965.
7. Abu Rayhon Beruniy. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. — Toshkent: Fan, 1968.
8. Ibn Sino. Axloq haqida risola. — Toshkent: O'qituvchi, 1967.
9. Ibn Sino. Tadbiri manzil. — Toshkent: Fan, 1981.
10. Forobiy Abu Nasr. Fozil odamlar shahri. — Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti, 2004.
11. Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig — Saodatga eltuvchi bilim. — Toshkent: Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2007.

12. Navoiy A. Mahbub ul-qulub. — Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2018.
13. Behbudiy M. Tanlangan asarlar. — Toshkent: Ma'naviyat, 1999.
14. Fitrat A. Oila yoki oila boshqarish tartiblari. 2-nashr. — Toshkent: Ma'naviyat, 2000.
15. Avloniy A. Turkiy Guliston yoxud axloq. — Toshkent, 2008.
16. Quronov M. Milliy tarbiya. — Toshkent, 2007.
17. Otamuratov S. Globallashuv: millatni asrash mas'uliyati. — Toshkent, 2018.
18. Nazarov Q. Qadriyatlar falsafasi (Aksiologiya). — Toshkent: Faylasuflar milliy jamiyati nashriyoti, 2004.
19. Erkayev A. Ma'naviyatshunoslik. — Toshkent, 2018.